

ZAXIRIDDIN MUXAMMAD BOBURNING JISMONIY TAYYORGARLIGINING  
XUSUSIYATLARI VA CHIZGILARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7542733>



ELSEVIER



**B.Sh.Madaminov**

Namangan davlat universiteti  
Fakultetlararo jismoniy madaniyat  
kafedrası dotsenti



Received: 16-01-2023  
Accepted: 16-01-2023  
Published: 22-01-2023

**Abstract:** Bobur saxiy,olijanob,mard, maftunkor,sevimli,madaniyatli,o'tkir qobilyatli siyosiy arbob,diplomat va sipohiy bo'libgina qolmay,ajoyib "xotirotlar" muallifi ham edi. O'z qiyofasini chizishdagi samimiylik ochiq ko'ngillik va rostgo'ylik Boburning havas qiladigan fazilatlaridan bo'lgan. Dunyoda hech bir fotihu jahongir tillarda bunchalik doston bo'lgan emas. Ushbu maqolada bexisob hislatlarga burkangan zotning mardligi,saxovatpeshaligi Bobur siymosiga chizgilar haqida gap boradi.

**Keywords:** faoliyat, tarixiy, shaxs, nomlar, alloma, vatandosh, adib,meros, o'rganish, abadiylashtirish sodiq,hayot,yo'llar,fidoyi,e'tibor, arbob,baquvvat,nasl,nasab, jangchi, fe'l,cheksiz.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.



Received: 16-01-2023  
Accepted: 16-01-2023  
Published: 22-01-2023

**Abstract:** Babur was not only a generous, noble, courageous, charming, sweet, cultured, sharp politician, diplomat and warrior, but also the author of wonderful "memories". Sincerity, openness and honesty in the self-portrait were among the enviable qualities of Babur. No other poet in the world has been so epic in the languages of the world. This article talks about the courage and generosity of Babur, who is overwhelmed with countless emotions..

**Keywords:** activity, historical, person, names, scientist, countryman, writer, heritage, scholarship, perpetuation, faithful, life, ways, dedicated, attention, figure, strong, pedigree, pedigree, warrior, verb, endless.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.



Received: 16-01-2023  
Accepted: 16-01-2023  
Published: 22-01-2023

**Abstract:** Бабу́р был не только великодушным, благородным, смелым, обаятельным, милым, культурным, острым политическим деятелем, дипломатом и воином, но и автором замечательных «воспоминаний». Искренность, открытость и честность в автопортрете были одними из завидных качеств Бабура. Ни один другой поэт в мире не был так эпичен на языках мира. В этой статье рассказывается о храбрости и щедрости Бабура, которого переполняют бесчисленные эмоции.

**Keywords:** деятельность, исторический, человек, имена, ученый, земляк, писатель, наследие, ученость, увековечение, верный, жизнь, пути, посвященный, внимание, фигура, сильный, родословная, родословная, воин, глагол, бесконечный.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev davlat rahbari sifatida faoliyatlarining ilk kunlaridayoq tarixiy shaxslarning nomlarini tiklash, vatandosh allomalarimiz,adib ijodkorlarimiz merosini o'rganish bo'yicha ularni nomlarini abadiylashtirish, ular bosib o'tgan ibratli hayot yo'llarini ko'rsatish orqali yoshlarimizni yurtga sodiq,xalq ishiga fidoyi insonlar qilib tarbiyalashga kata e'tibor berdilar.

Biz Bobur Mirzoni o'ltan davlat arbobi sifatidagina emas, qomusiy alloma, mumtoz shoir hamda jismonan xar tomonlama yetuk inson sifatida ham cheksiz qadrlaymiz.

Zaxiriddin Muxammad Bobur bo'yli, baquvvat odam bo'lsada-da, bular uning nafisligini va nasl nasabiga xalal bermas edi. O'ta hayoliy bo'lmasada, lekin rassomlar jangchi va sportchining qo'liga mos kelmaydigan qilib ishlagan cho'ziq va nozik qo'llar, uning yuzi cho'ziq, yonoqlari biroz bo'rtib chiqqan, ko'zining kesimi keng, tikka tikka qoshlari biroz egma, qarashlari sinchkov bo'lgan.

Boburning fe'l-atvori o'z zamondoshlari va hozirgi tarixchilar tomonidan ko'klarga ko'tarib maqtaladi. Boburiylar tarixini yoritishga bag'ishlangan noyob asarlar qatorida o'sha davrda yaratilgan qimmatbaxo qo'lyozmalar bilan bir qatorda, o'sha qo'l yozmalar asosida, ularga tayanilgan holda yaratilgan zamonaviy tarixiy asarlar Britaniya, Hindiston va Pokistonda ko'plab nashr etilgan. Ana shunday asarlarning biri Hind tarixnavisi L.P. Sharmaning 1988 yili Daxlida chop etilgan "Mo'g'ullar saltanati" (Boburiylar saltanati)dir. "Tarixi Rashidiy" kitobining muallifi Mirzo Xaydarning ta'kidlashicha, Boburni "juda ko'p fazilatlar fayziyob etgan bo'lib, u bexisob olijanob xislatlarga burkangan ediki, u zotning mardligi va saxovatpeshligi hamma xislatlaridan ustun turar edi".

Boburning fazilatleri qizi Gulbadanbegim tomonidan yozilgan "Xumoyunnoma" asarida batafsil tasvirlab berilgan. Ingliz tarixchisi S. Leyn Puul Boburni "Sharq tarixidagi eng maftunkor shaxs edi", deb ta'riflaydi.

Boburning inson sifatidagi hislatleri xaqiqattan ham maqtovga sazovordir. U jismonan baquvvat kishi bo'lib, qal'a devori ustida ikki kishini qo'ltiqlab olib, to'siqlardan bemalol o'ta olar edi. Hindistonda duch kelgan har qanday daryodan qiynalmay suzib o'tar, 80 milcha masofani dam olmay bir kunda otda bosib o'tar edi. U may va chilim chekishni yaxshi ko'rardi. Shunga qaramay, uning vujudi umrining oxirigacha beshikast yurdi. Ibrohim Lo'diyninning onasi bergan zahar ham uning baquvvat jismiga katta zarar yetkaza olmadi.

Bobur sadoqatli o'g'il, mehribon ota, sodiq do'st, vafodor er va g'amho'r qarindosh edi. U keksa yoshdagi qarindoshlarining hurmatini joyiga qo'yar, o'z bolalarining o'qishi va tarbiyasi, shahsiyatining shakllanishiga katta e'tibor bilan qarar edi. Katta o'g'li Humoyunga tilni mukammal o'rganishni va o'z nutqiga e'tibor qilishni, kamolot sari intilishni maslahat berardi. U "Intilganga tole yor", der edi va favg'ulotda hollarda vahimaga yo'l qo'ymasdi. "Beg'amlik va loqaydlik hukmdorning ishi emas", -deb ta'kidlar edi.

Bobur qarindosh-urug'lardan muruvattini ayamas, do'stlarining tashvishiga xam dardlik qilar va quvonchlariga sherik bo'lar, hotinleri bir nechta bo'lishiga qaramay, ularning barchasini baravar izzat qilardi, o'g'illarining ham hammasiga birdek mehr bilan qarardi. O'lim to'shagida yotgan paytda ham katta o'g'li

Humoyunga vasiyat qilib: "Ukalarining jazoga loyiq ish qilsalar ham ularga yomonlikni ravo ko'rmagin", - degan edi. U may va ulfatchilikni hush ko'rganidan kayf ustida berilgan va'dalari uchun ham katta ma'suliyat xissini sezardi. U saxiy, oliyjanob, mard, maftunkor, sevimli va juda madaniyatli kishi edi. Ingliz tarixchisi X. Elliyot Bobur haqida shunday deb yozgan edi: "Tabiatan hushchaqchaq, jasur, ulug'or, o'tkir zehni va ochiq chehrali kishi. Agar uning hayot yo'li Ovrupoda o'tkanda Genri VIIning o'zginasi bo'lgan bo'lar edi. U kishi qalbini va vaziyatni darxol anglab olardi. Musiqa va bog' yaratish ishiga ishqiboz edi. Hindistonda juda ko'p inshootlar barpo etgan edi."

Bobur ma'rifatchi shox bo'lgan edi. Shimoliy Hindistonda erishgan g'alabalari tufayli Boburning nomi mashxur jangchi va sarkarda sifatida tarixdan o'rin olgan. Biroq, u Hindistonni zabt etmagan taqdirda ham uning nomi olim sifatida eslangan bo'lardi. U o'n bir yoshidanoq jangu jadallar band bo'lgani uchun yoshligida mukammal ilm ololmagan. Shunga qaramay, uning hayotdan olgan bilimi, turkiy tilni mukammal bilishi olimlar dunyosidan unga alohida joy hozirlab bergan edi. Turkiyning mukammal bilishidan tashqari arab va fors tillarini ham yaxshi o'rgangan edi. Turkiy narsada asar yaratish borasida uning zamondoshlaridan birontasi unga teng kelolmas edi. "Tuzuki Boburiy" yoki "Boburnoma" deb atalgan uning hotiralar to'plami dunyoda yaratilgan avtobiografik asarlar ichida eng yaxshisi hisoblanadi. Bu asar eng yaxshi tarixiy manbagina bo'lib qolmay, eng yaxshi adabiy asar hamdir. A.S. Beverij honimning takidlashicha, bu asar "...butun tarixda yaratilgan yozma yodgorliklarning eng bebahosidir". Bobur bu asarda o'zi bo'lgan o'lkalarning tabiiy hodisalarini, tabiat manzaralarini, iqlimini, jonivorlar va parrandalar olamini, gullar va mevalar dunyosini, san'at va xunarmandchiligini hamda xalqlarning turmush tarzini ustalik bilan tasvirlab bergan. Shahsiy hayot yo'lini tasvirlar ekan, shu asnodda o'zining odatlari, yaxshilik va kamchiliklarini, raqiblarining siyosiy va iqtisodiy shart-sharoitlarini, o'g'illari va qarindoshlarining qiliq va odatlarini ustalik bilan bayon etadi. Bu asarni o'qigan kishi Bobuni turkiyning mukammal egallaganiga hamda o'zi bosib o'tgan o'lkalarning geografik ijtimoiy va siyosiy vaziyatini juda sinchkovlik bilan kuzatganiga ishonch hosil qiladi.

Uning "Devon" deb atalgan she'riy asarlar to'plami o'sha davrda yaratilgan nazmiy asarlarning eng yaxshisi ekaniga shubxa yo'q. U fors tilida g'azal yozib, bu borada ham o'ziga xos uslubni yaratdi. U Hoja Ubaydullohning "Risolai volidiya" asarini turkiyga tarjima ham qilgan. Shu bilan bir qatorda, Bobur musulmonchilik qoidalarini o'zida mujassam qilgan "Mubayyin" deb atalgan masnaviyalar to'plamini ham bitadi. "Xatti Boburiy" deb atalgan alifbo yaratib, yangi husnixat namunalariga asos soladi. Bu asarlarning barchasi muallifning bilim doirasi, yozish

uslub va til manbalaridan ustalik bilan foydalaniganligi nuqtai nazaridan taxsinga sazovordir, deb hisoblab kelinadi.

O'z davrining shoirlari qatorida Bobur Mirzo Alisherbekdan keyingi mavqeda turar edi. Shuning uchun ham Bobur asosli ravishda olim shoh deb tan olinadi. C.Leyn Puul ta'riflaganidek Bobur "...omadli navkar bo'lish bilan birga, nozik didli adabiyotchi va tanqidchi ham edi. Uning janglaridan ham maishiy xayotdagidek shoirlik nafasi ufurib turardi".

Bobur jasur navkar va tajribali sarkarda edi. U bolaligidanoq janglarda qatnashganidan o'limga qo'rqmasdan qarardi. C.R.Sharma shunday deb yozadi: "U ajoyib chavandoz, mohir mergan, chaqqon qilichboz va tolmas ovchi edi".

Boburning sarkardalik tajribasi Markaziy Osiyoning turli toifa va guruhdagi xalqlari bilan bo'lgan janglarda chiniqib toblandi. U Temur yoki Chingizhon singari tug'ma sarkarda emas edi, balki xayotining dastlabki davridagi janglarda bir necha bor mag'lubiyatga uchrab, asta-sekin tadbirkor lashkarboshiga aylandi. U hech qachon matonatini yo'qotmadi va kurashda yiqilgan paytlarda o'zini o'nglash uchun doimo iroda kuchini ishga sola bildi, janglarda tajriba to'pladi. "To'lg'ama" usulida urush olib borishni turklardan, pistirma qo'yishni afg'onlardan, poroxli miltiq va to'plarni ishlatishni eroniylardan, harakatdagi otliq askardan foydalanishini turklardan o'rgandi. U bu kabi barcha usullarni o'z o'rnida qo'llash tizimini ham ishlab chiqdi. Mana shunday tadbirkor lashkarboshiligi uchun ham u Hindistondagi janglarning barchasida g'olib chiqdi. Bundan tashqari Bobur o'z hamroxlarni ilxomlantirib ishonchini qozonar, ularni jasoratga undar, zarur hollarda o'ziga bo'ysundira olar edi. U o'z qo'shinidan kattaroq bo'lgan lashkarga qarshi kurashishdan aslo qo'rqmas, hamisha raqibning nozik va kuchli joylarini anglab olishga, undan jang paytida foydalanishga harakat qilardi.

Hayotning og'ir kunlarida Bobur hamisha askarlar davrasida bo'lar, shuning uchun ham navkarlar uni hurmat qilishardi. Lekin Bobur qattiq intizom tarafdori edi, tartibbuzar, buyruqqa bo'ysunmaganlar va aybdorlarni qattiq jazolardi. Buyruqqa to'la itoatkorlikni talab qilardi. Uning bu boradagi obro'si haqida tarixchi Farishta shunday yozadi: "Shunisi aniqki, bu yerda Boburning borligi uchun ham Davlatxon oilasining or-nomusi saqlab qolindi" Behradagi urushdan so'ng talonchilik bilan shug'ullanganlarning hammasini u qattiq jazoga tortgan. O'z xotiralarida ular haqida shunday deb yozadi: "Arzga yettikim, cherik eli Bexra eliga besarliq va dastandozliklar qiladurlar. Kishilar yiborib, besarlig' qilg'on elning ba'zisini yasoqqa yetkurib, ba'zisining burnini teshib, o'rduni evurdilar". Shuning uchun ham uning askarlari Boburni sevibgina qolmay, undan qo'rqar hamedilar, uning qo'l ostida qo'shinlar yaxshi tashkil qilingan intizomli va omilkor lashkarga aylangandi.



Diplomat sifatida Bobur juda tadbirkor arbob edi. Farg'onadagi taxtidan birinchi quvilgan paytda uning saltanatiga dushman tog'alari har tomondan taxdid solib turgandi. Tadbirkorligi va ustomonligi tufayligina Bobur Farg'ona davlatini tog'alarining hujumidan saqlab qola olgan edi.

Shia mahzabiga mansub bo'lgan Eron shoxi bilan tuzilgan bitim va undan keyingi munosabatlari ham Boburning mohir siyosatdan ekanidan dalolat beradi. Hindistonda olib borgan siyosati ham uning bu xislatlarini yaqqol namoyon qilib berdi. O'zi mag'lub qilgan hind rojasi Medini Raoning ikkita qizini o'g'illari Xumoyun va Komronga hotinlikka olib berishi ham mahalliy xalq mehrini qozonishga va hindlar bilan boburiylarning quda-andachilik munosabatlari yo'lga qo'yishga sabab bo'lgan edi. U mo'g'ul, afg'on, hind amir va beklari bilan yaxshi munosabatlarni saqlab turar edi. Ko'pgina afg'on xonlari uning ostonasiga bosh urib keldi. Bengal xoni Nusratshox ham u bilan diplomatik munosabatlar o'rnatdi.

Bobur Sherxonurning ham yuqori martabalarga erishishiga yo'l ochib berdi, biroq u payti kelganda makkorlik bilan boburiylarni biroz muddatga bo'lsa xam Hindistondan quvib chiqardi, lekin o'sha vaqtda Bexor xoni Jalolxon Bobur saltanatiga taxdid solib turgan edi, shuning uchun ham u Sherxonurning tavbat-zarrusini qabul qilib, Jalolxondan ko'z-quloq bo'lib turish uchun uni Bexorda qoldirgandi. Bundan tashqari u o'z amirlariga Sherxonning tutgan ishlaridan doim habardor bo'lishni tayinlab, "Sherxondan ko'z uzamang, u aqlli odam, uning peshonasiga shahzodalik bitilgani sezilib turibdi"-degan edi. Bundan ko'rinib turibdiki, u odamlarning ichki dunyosini va muddaosini yaxshi biladigan o'tkir zehqli kishi edi. Kishilarning qalbiga yo'l topa bilish mahorati tufayli Bobur oltita hind rojasini ularning o'z hoxishiga ko'ra izmiga bo'ysundirib olgan edi.

Xukmdor sifatida Bobur o'z burchlarini yaxshi bajarardi. U hukmdorning mavqeini yanada ko'tarishga tirishardi va yakka hukmronlikning qudratiga to'la ishonar edi. Shuning uchun ham u o'ziga "Podshox" degan unvonni qabul qilgan. Hindistonda Feruz To'g'loqdan keyin xalq nazarida obro'si pasayib ketgan hukmdorning nufuzini Bobur yana o'z o'rniga tiklab qo'ydi. Daxlida sultonlar hukm surgan davrda Bo'lbon, Alovuddin, Xiljiy va Muxammad To'g'loq kabi sultonlarni fuqaro xurmat qilmas, balki ulardan qo'rqar edi. Feruz To'g'loq singari hukmdorlardan uning qo'l ostidagilar na qo'rqar na hurmat qilardi, shu bois xalq nazarida saltanat o'z hurmatini yo'qotib qo'ygan edi. Sulton Iskandar Lo'diy hukmron bo'lgan davrda saltanat obro'si biroz tiklanganday bo'ldi-yu, lekin bu hol uzoqqa bormadi. Uning vorisi bo'lmish o'g'li o'z fuqarosining ham, saroy a'yonlarining ham hurmatiga sazovor bo'la olmadi.

Bobur saroyda shohning martabasini juda yuqori darajaga olib chiqdi. Amir va beklari hamda oddiy fuqaro ham uning hurmatini joyiga qo'yar va undan

hayiqib ham turar edi. Ana shu tufayli Bobur Badaxshondan Bexorgacha bo'lgan ulkan saltanatida tartib va osoyishtalikni saqlab tura oldi. Fuqarolar turmushining farovonligini ta'minlash o'zining asosiy burchi ekanini yaxshi anglardi. U qo'l ostidagi fuqarolarning mulki va nomusi daxlsizligini ta'minlar, yo'llardagi qaroqchilardan himoya qilar, saroy va mahalliy amaldorlardan ularga nisbatan doim shavqatli bo'lishni talab qilar, ma'muriy ishlarni nazoratiga olib, mamlakatda adolat o'rnatishga harakat qilardi. Hindistonga dastlabki kelishidayoq Bexra amir va beklariga mahalliy aholining mulkini talon-toroj qilmaslik haqida buyruq bergan edi. Ingliz tarixchilari X. Elliyot va J. Dousonlarning yozishicha, Bobur shunday ta'kidlagan ekan: "Qadimdan turklarga mansub bo'lgan bu o'lkalarni men o'zimniki, deb e'lon qilgan ekanman, men bu yerlarda hech qanday talon-torojga yo'l qo'ymayman".

Yo'llarni o'lchab xisoblash uchun u "Gazi Boburiy" degan o'lchov birligini amalda tatbiq qildi va bu birlik Jaxongir hukmronligining oxirigacha amalda qo'llaniladi. Bobur hukmdor sifatida fuqarolarning mulki va qadr-qimmatini himoya qilishni o'zining asosiy burchi, deb bilar va shuning uchun ham ularning ishonchini qozona olgan edi. Oddiy fuqarolar undan hurmat-e'tibor va shafqat-ximoya kutardi. Qo'l ostidagi amaldorlarining buyruqlarni qay tarzda ijro etayotganini sinchkovlik bilan kuzatib borar va fuqarolarning turmush farovonligini qat'iy nazorat qilardi.

Bobur san'atga juda ishqiboz edi. U Agra, Fotexpur Sekri, Boyona va Do'lpur shaharlarida juda ko'p binolar qurdirtdi hamda gullar va mevali daraxtlar ektirib, bog'lar yaratdi. Shunday qilib, shox sifatida Bobur mamlaktda osoyishtalikni saqlash, xavfsizlikni ta'minlash, xalqqa g'amxo'rlik qilish va adolatparvarlik borasida katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Buning evaziga xalqning hurmati va mehrini qozondi.

Ayni vaqtda Bobur unchalik yaxshi ma'mur emas edi. U Hindistonda ham, Afg'onistonda ham deyarli ma'muriy o'zgarishlar qilmadi. Hukumat idoralarda eskicha tartibning davom etishiga yo'l qo'yib berdi. Hindistonda u mamlakatni "jog'ir" deb atalgan hududlarga ajratib, shu tarzda idora qilishni yo'lga qo'ydi. Bobur, albatta, hukumat boshlig'i sifatida saltanatning birligini ta'minlashga erishgan bo'lsa-da, mahalliy ma'muriy idora boshliqlari o'z holiga tashlab qo'yilgan edi. Ular faqat o'z hududlaridagi ishlar bilamgina ovora bo'lar edilar.

Bobur boshqa soxalar, masalan, soliqlar va yig'imlar borasida ham, sudlov ishlari soxasida ham yagona bir tizimni shakllantira olmadi. Buning ustiga u moliya ishlari bilan ortiqcha qiziqmas edi. U Dexli, Agra va Guvalyorlardan o'lja qilingan xazinalarni o'g'illari va amirlariga bo'lib berib, saltanat xazinasini to'lg'azish haqida qayg'urmadi ham. Bu esa o'zi uchun ham, keyinroq Humoyun uchun ham ancha moliyaviy qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Shu bois o'zi hayot paytidayoq u

axvolidan qo'shimcha soliq yig'ishga va undan 30 foizini amaldorlarga maosh sifatida berishga majbur bo'lgan edi. Biroq bu choralar ham unga yordam bera olmadi va saltanatda hamisha moliyaviy yetishmovchilik sezilib turdi. Buning asorati Humoyun faoliyatida ham davom etdi. Ingliz tarixchisi Rashbruk Uilyams ta'biri bilan aytganda, Bobur "...o'z o'g'liga faqat urushlar tufayligina ushlab turish mumkin bo'lgan, tinchlik paytlarida esa moliyaviy jihatdan kuchsiz va kelajagi noaniq bo'lgan saltanat qoldirgan edi".

Jamiyatda jismoniy madaniyat, odamlar mulki bo'lib, "ma'naviy boylik, axloqiy poklik va jismoniy barkamollikni uyg'unlashtirgan yangi insonni tarbiyalashning" muhim vositasidir.

Bu odamlarning ijtimoiy va mehnat faolligini oshirishga, ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligiga, jismoniy madaniyat harakati jismoni va sport sohasidagi davlat va jamoat tashkilotlarining ko'p tomonlama faoliyatiga tayanadi. Odamlarning jismoniy madaniyati uning tarixining bir qismidir. Uning shakllanishi, keyingi rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishiga, uning davlatchiligiga va jamiyatning siyosiy va ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatadigan bir xil tarixiy omillar bilan chanbarchas bog'liq.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bobur Z.M. Boburnoma.- Toshkent: Sharq, 2002.
2. Beverij A.S. tarjimasi (ingliz tilida).- London, 1905.
3. Bartold V.V. Yevropa va Rossiyada Sharqni o'rganish tarixi.- Toshkent: Fan, 1925.
4. Z.M. Bobur ensiklopediyasi.- Toshkent: Sharq, 2014.
5. Otajanov N. Boburnoma jahon kezadi.- Toshkent, 1984.
6. Salomov G'. Otajanov N. Biz bilgan va bilmagan Bobur // O'zbekiston ovozi, 1997, 13 fevral.
7. Xasanov S.Z.M. Boburning jahon madaniyatida tutgan o'rni // Bobur va Dunyo.- №1ю
8. Eiji Mano. Babur-name. Kyoto, 1996.
9. Stammler W. Die Erinnerungen des esrten grossmoguls von Indien: Das Babur-nama, Zurich, 1988.